

## Inson vujudi - Allohning omonati



12:30 / 01.01.2019 10115

### ***Ey, farzand!***

Vujud insoniyatga Alloh bergan bir omonat hisoblanadi. Demak, vujudagi a'zolar ham Allohning omonatidir. Omonatga xoinlik, ya'ni xiyonat qilinmaydi. Bu xususda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

**«Ummatim ustiga shunday bir zamon keladiki, omonatlar saqlanmaydi (himoya qilinmaydi)».**

Bu hadisi sharifni eshitganlar Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan «Omonatdan murod nima?» deb so'rashdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat etdilar:

**«Qo'l - insonga Alloh (tomonidan berilgan) omonatidir. U bilan harom narsaga yopishmaslik kerak.**

**Oyoq - Allohning bir omonati. U bilan haromga yurmaslik, haromga bormaslik kerak. Tanosil a'zolari omonat. Ular bilan zino qilmaslik lozim. Barcha a'zolar Allohning omonatidir. Ularni bandalik xizmatida, foydali ishlarda qo'llash kerak. Shunday ish tutgan kishi kafolat ostida bo'lganidek, o'zi ham ishonchli, eminlardan bo'ladi. Aks holda xoinlardan bo'ladi».**

***Ey, farzand!***

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat etdilar:

«Bir kishi Luqmondan:

- Siz Luqmonmisiz? - deb so'radi.

Luqmon:

- Ha, men Luqmonman, - dedilar. O'sha kishi:

- Men bilganimda siz zaif bir odam edingiz, bunday darajaga qanday erishdingiz?  
- dedi.

Luqmon:

- Shu uch narsa bilan.

1. Omonatga xiyonat qilmaslik.

2. To'g'ri gapirish.

3. Keraksiz so'z va ishlarni tark etish, ko'p va foydasiz so'zlashishni tashlamoq bilan erishdim, - dedilar».

***Ey, farzand!***

Inson a'zoga omonatga xiyonat qilmasin.

Hazrati Muso alayhissalom Allohdan so'radilar:

«Allohim! Omonatni yaxshi saqlab, ko'rib, haqqini berganga, haqqiga rioya etganga, joyiga, o'rniga topshirganga qanday ehsonda bo'lgaysan?»

Alloh marhamat etdi:

«Ey, Muso! Omonatni yaxshi koʻrgan va uni joyiga, oʻrniga topshirgan qulimni qiyomat kuni xavfdan emin etib, jannatimga kiritaman!»

***Ey, farzand! kitobidan***